Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 342

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON QADR-QIMMATI USTUVORLIGINING HUQUQIY ASOSLARI

Nazokatxon Zafarjon qizi Abdug‘afforova*

Farg‘ona davlat universiteti, Tarix fakulteti, milliy g‘oya,ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi 2-bosqich talabasi

✉ abdugafforovanazokat@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadr-qimmatining oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi, uning konstitutsiyaviy-huquqiy mazmuni va himoya mexanizmlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi inson qadr-qimmati ustuvorligi prinsipining normativ asoslarini aniqlash, mazkur prinsipning inson huquq va erkinliklarini ta’minlashdagi ahamiyatini baholash hamda uni amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq huquqiy masalalarni yoritishdan iborat. Tadqiqot davomida formal-yuridik, tizimli, qiyosiy-huquqiy va mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13, 20, 26, 54 va 55-moddalari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Tahlil natijasida inson qadr-qimmati konstitutsiyaviy tuzumning qadriyaviy asosi, mustaqil huquqiy himoya obyekti hamda davlat faoliyatini baholash mezoni sifatida namoyon bo‘lishi asoslandi. Shuningdek, qadr-qimmat daxlsizligini ta’minlashda huquqlarni bevosita qo‘llash, inson foydasiga talqin qilish va samarali sud himoyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatildi. Maqolada inson qadr-qimmatini himoya qilishning normativ kafolatlarini davlat organlarining amaliy faoliyati bilan uyg‘unlashtirish zarurligi ilgari suriladi. Tadqiqot xulosalari konstitutsiyaviy normalarni sharhlash, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish va inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar

Konstitutsiya, inson qadr-qimmati, oliy qadriyat, inson huquqlari, konstitutsiyaviy kafolatlar, huquqiy davlat, sud himoyasi, konstitutsiyaviy prinsip.

KIRISH

Inson qadr-qimmatini e’tirof etish va himoya qilish zamonaviy konstitutsiyaviy huquqning asosiy masalalaridan biridir. Demokratik davlatning mohiyati faqat hokimiyat organlarining tashkil etilishi yoki ularning vakolatlari bilan emas, balki insonning huquqiy maqomi, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash darajasi bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan inson qadr-qimmati davlat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim konstitutsiyaviy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur prinsip insonning shaxs sifatidagi daxlsizligini e’tirof etish, davlat hokimiyatining huquqiy chegaralarini belgilash hamda inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro huquqda inson qadr-qimmatining fundamental ahamiyati 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e’tirof etilgan. Deklaratsiyaning 1-moddasiga muvofiq, barcha insonlar qadr-qimmati va huquqlari jihatidan erkin hamda teng bo‘lib tug‘iladilar. Ushbu qoida inson huquqlarining universalligi va tengligi g‘oyalarini ifodalaydi. Keyinchalik inson qadr-qimmati turli davlatlarning konstitutsiyaviy tizimlarida huquq va erkinliklarni sharhlash, huquqiy cheklovlarni baholash hamda davlatning majburiyatlarini belgilashda muhim mezon sifatida rivojlandi.

O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlarning muhim natijalaridan biri inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatining oliy qadriyat sifatidagi maqomini huquqiy kafolatlar bilan yanada mustahkamlash bo‘ldi. 2023-yil 30-apreldagi referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida inson va uning ajralmas huquqlari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Konstitutsiyaning 26-moddasida insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligi, qiynoq hamda inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomala va jazolarning taqiqlanishi belgilangan. Mazkur normalar inson qadr-qimmatini faqat ma’naviy-axloqiy tushuncha emas, balki konstitutsiyaviy himoya qilinadigan huquqiy qadriyat sifatida baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga, inson qadr-qimmatining konstitutsiyaviy darajada e’tirof etilishi uning barcha huquqiy munosabatlarda bir xil mazmunda qo‘llanishini anglatmaydi. Davlat organlari qarorlarining qonuniyligi, huquqlarga qo‘yiladigan cheklovlarning mutanosibligi, shaxsga nisbatan muomala va huquqlarni sud orqali himoya qilish masalalarida ushbu prinsipning mazmuni alohida aniqlashtirilishi kerak. Binobarin, inson qadr-qimmatini himoya qilishning konstitutsiyaviy asoslari bilan uning huquqni qo‘llash jarayonidagi amaliy ifodasi o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy tahlilni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadr-qimmati ustuvorligining huquqiy asoslarini tizimli tahlil qilish, uning boshqa konstitutsiyaviy prinsiplar bilan o‘zaro aloqasini aniqlash hamda huquqiy kafolatlarni amalga oshirishga doir ilmiy takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun inson qadr-qimmatining konstitutsiyaviy-huquqiy mazmunini yoritish, tegishli normalarning o‘zaro bog‘liqligini baholash, xorijiy ilmiy yondashuvlarni qiyosiy o‘rganish hamda huquqni qo‘llashda foydalanilishi mumkin bo‘lgan mezonlarni aniqlash vazifalari belgilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Inson qadr-qimmati muammosi zamonaviy konstitutsiyaviy huquq nazariyasida shaxsning huquqiy maqomi, davlat hokimiyatining chegaralari va fundamental huquqlarni himoya qilish mexanizmlari bilan bog‘liq holda tadqiq etilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda inson qadr-qimmati bir tomondan barcha inson huquqlarining qadriyaviy asosi sifatida, ikkinchi tomondan esa mustaqil konstitutsiyaviy huquq va huquqiy normalarni talqin qilish mezoni sifatida baholanadi. Mazkur yondashuvlar inson qadr-qimmatining huquqiy mazmuni va uni amaliyotda qo‘llash usullariga nisbatan turlicha ilmiy qarashlar mavjudligini ko‘rsatadi.

F. Horák inson qadr-qimmatining huquqiy argumentatsiyadagi funksiyalarini tadqiq etib, uni uchta asosiy shaklda tushuntiradi: inson huquqlarining manbai, obyektiv konstitutsiyaviy qadriyat va nisbiy individual huquq [1]. Olimning fikricha, mazkur funksiyalarni farqlamasdan qo‘llash huquqiy normalarni talqin qilishda noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, sud muhokamalarida inson qadr-qimmatiga asoslanayotgan huquqiy dalilning mazmuni va chegaralari aniq ko‘rsatilishi lozim.

F. Horákning yondashuvi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Konstitutsiyaning 13-moddasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida belgilangan bo‘lsa, 26-moddasida inson sha’ni va qadr-qimmatining daxlsizligi kafolatlangan. Mazkur normalar inson qadr-qimmatining konstitutsiyaviy qadriyat hamda huquqiy himoya obyekti sifatidagi ikki jihatini namoyon etadi. Biroq ushbu normalarning huquqni qo‘llash jarayonidagi vazifalarini bir xil deb baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Birinchi holatda qadr-qimmat konstitutsiyaviy tuzumning umumiy qadriyaviy yo‘nalishini belgilasa, ikkinchi holatda shaxsning daxlsizligini ta’minlashga xizmat qiluvchi aniq huquqiy kafolat sifatida namoyon bo‘ladi.

A. Stone Sweet va T. T. W. Wan inson qadr-qimmatining konstitutsiyaviy tizimdagi o‘rnini Xitoy Xalq Respublikasi huquqiy islohotlari misolida tadqiq etgan [2]. Mualliflar inson qadr-qimmatining fundamental huquqiy norma sifatida e’tirof etilishi bilan uning amaliy himoyasini ta’minlovchi institutsional mexanizmlar o‘rtasidagi munosabatlarga alohida e’tibor qaratadilar. Tadqiqotda qadr-qimmatning qonunchilikda mustahkamlanishi huquqiy tizim rivojlanishining muhim belgisi ekani, biroq uning amaliy ahamiyati tegishli huquqiy kafolatlar va sud institutlarining faoliyati bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi.

Ushbu ilmiy yondashuvning O‘zbekiston konstitutsiyaviy huquqi uchun ahamiyati shundaki, inson qadr-qimmatining oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi uning huquqiy himoyasini baholashning dastlabki bosqichidir.

Keyingi bosqichda esa mazkur prinsipning davlat organlari faoliyatida, qonunchilikni qo‘llashda va huquqlarni sud orqali himoya qilish jarayonida qanday amalga oshirilishi tahlil qilinishi zarur. Shu sababli konstitutsiyaviy normalarning mavjudligini ularning amaliy samaradorligi bilan aynanlashtirish ilmiy jihatdan yetarli emas.

M. Pardo-Vergara inson qadr-qimmatining konstitutsiyaviy mazmunini falsafiy va huquqiy yondashuvlar asosida o‘rganadi [3]. Muallif qadr-qimmat tushunchasiga beriladigan turli ta’riflarning umumiy jihatlarini aniqlash orqali uning konstitutsiyaviy maqsad sifatidagi o‘rnini izohlaydi. Mazkur tadqiqotning muhim tomoni inson qadr-qimmatini faqat alohida huquqiy taqiq yoki kafolat bilan cheklamasdan, konstitutsiyaviy tartibotning inson manfaatlariga yo‘naltirilganligini ifodalovchi tushuncha sifatida tahlil qilishidir.

M. Pardo-Vergaraning qarashlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 va 54-moddalarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi. Xususan, 13-moddada inson oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, 54-moddada inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi sifatida belgilangan. Ushbu normalarning tizimli talqinidan kelib chiqadiki, inson qadr-qimmatining ustuvorligi davlat faoliyatining umumiy huquqiy yo‘nalishini belgilovchi prinsip sifatida baholanishi mumkin.

Ko‘rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlarning qiyosiy tahlili inson qadr-qimmati tushunchasiga nisbatan uchta asosiy yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi. F. Horák mazkur tushunchaning huquqiy argumentatsiyadagi funksiyalariga e’tibor qaratsa, A. Stone Sweet va T. T. W. Wan uning konstitutsiyaviy tizimdagi institutsional ahamiyatini o‘rganadi. M. Pardo-Vergara esa inson qadr-qimmatining mazmuni va konstitutsiyaviy maqsad sifatidagi mohiyatini izohlaydi. Ushbu yondashuvlar o‘zaro bir-birini to‘ldiradi, ammo tadqiqot predmeti va tahlil usullari jihatidan farqlanadi.

Mazkur ilmiy qarashlarni O‘zbekiston konstitutsiyaviy qonunchiligi bilan bog‘liq holda tadqiq etish inson qadr-qimmatining uchta huquqiy jihatini ajratish imkonini beradi. Birinchisi, inson qadr-qimmati konstitutsiyaviy tuzumning asosiy qadriyatlaridan biridir. Ikkinchisi, u shaxsning huquqiy himoya qilinadigan daxlsiz manfaatidir. Uchinchisi, inson qadr-qimmatiga hurmat davlat organlarining qarorlari va faoliyatini baholashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan konstitutsiyaviy mezondir. Bunday tasnif mazkur tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning normativ-huquqiy bazasini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13, 15, 20, 26, 54 va 55-moddalari tashkil qiladi. Ushbu normalar inson qadr-qimmatining oliy qadriyat sifatidagi maqomi, Konstitutsiyaning bevosita amal qilishi, inson huquqlarini talqin qilish, shaxs daxlsizligi va sud orqali himoya qilish kafolatlarini o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish imkonini beradi.

Tadqiqotda formal-yuridik metod yordamida konstitutsiyaviy normalarning mazmuni va huquqiy xususiyatlari tahlil qilindi. Tizimli tahlil metodi orqali inson qadr-qimmatiga oid normalarning Konstitutsiyaning boshqa qoidalari bilan o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Qiyosiy-huquqiy metod xorijiy ilmiy tadqiqotlarda ishlab chiqilgan yondashuvlarni milliy konstitutsiyaviy normalar bilan taqqoslash uchun qo‘llanildi. Mantiqiy tahlil metodi asosida inson qadr-qimmatining konstitutsiyaviy prinsip, himoya obyekti va davlat faoliyatini baholash mezoni sifatidagi xususiyatlari umumlashtirildi.

Tadqiqot hujjatli va nazariy-huquqiy tahlilga asoslangan bo‘lib, unda sud amaliyotining mustaqil statistik yoki empirik tadqiqoti amalga oshirilmadi. Shuning uchun ishlab chiqilgan baholash mezonlari amaldagi sud amaliyotida to‘liq tasdiqlangan natijalar emas, balki keyingi huquqiy tadqiqotlarda tekshirilishi mumkin bo‘lgan ilmiy takliflar sifatida baholanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadr-qimmatining ustuvorligi konstitutsiyaviy tuzumning asosiy qadriyatlaridan biri sifatida mustahkamlangan. Mazkur prinsipning huquqiy mazmuni faqat inson sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligini e’tirof etish bilan cheklanmaydi. U davlat organlarining faoliyati, huquq va erkinliklarni amalga oshirish, qonunchilik normalarini talqin qilish hamda sud orqali himoya qilish mexanizmlari bilan uzviy bog‘liqdir. Tadqiqot davomida Konstitutsiyaning 13, 20, 26, 54 va 55-moddalari tizimli tahlil qilinib, inson qadr-qimmati ustuvorligining uchta asosiy huquqiy xususiyati ajratildi: konstitutsiyaviy qadriyat, mustaqil huquqiy himoya obyekti va davlat faoliyatini baholash mezoni.

Inson qadr-qimmatining konstitutsiyaviy qadriyat sifatidagi huquqiy mazmuni**.** O‘zbekiston Respub-

likasi Konstitutsiyasining 13-moddasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat sifatida belgilangan [4]. Ushbu normaning huquqiy ahamiyati shundaki, u davlat hokimiyati faoliyatining inson manfaatlariga yo‘naltirilganligini ifodalaydi. Davlat organlari o‘z vakolatlarini amalga oshirishda insonni faqat huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida emas, balki huquq va erkinliklarga ega mustaqil shaxs sifatida e’tirof etishi zarur.

Mazkur konstitutsiyaviy qoidadan kelib chiqib, inson qadr-qimmatini davlat tomonidan beriladigan imtiyoz yoki alohida ijtimoiy maqomga bog‘liq huquq sifatida talqin qilish mumkin emas. Inson qadr-qimmati har bir shaxsga uning inson ekanligi sababli tegishli bo‘lgan fundamental qadriyatdir. Shu bois davlat organlarining qarorlari va harakatlari shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli, kasbi yoki boshqa holatlaridan qat’i nazar, uning qadr-qimmatiga hurmat prinsipiga muvofiq bo‘lishi kerak.

Konstitutsiyaning 13-moddasidagi mazkur qoida huquqiy tizimning umumiy yo‘nalishini belgilaydi. Biroq uning amaliy ahamiyatini tushuntirish uchun boshqa konstitutsiyaviy normalar bilan o‘zaro aloqasini aniqlash zarur. Jumladan, 20-modda inson huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishini, 26-modda sha’n va qadr-qimmat daxlsizligini, 54-modda esa inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi ekanligini mustahkamlaydi. Ushbu normalar birgalikda inson qadr-qimmatining qadriyaviy, huquqiy va tashkiliy jihatlarini ifodalaydi.

Inson qadr-qimmatining daxlsizligi va uni himoya qilishning huquqiy kafolatlari. Konstitutsiyaning 26-moddasi inson sha’ni va qadr-qimmatining daxlsizligini belgilaydi hamda ularni kamsitishga hech narsa asos bo‘la olmasligini mustahkamlaydi. Ushbu moddada qiynoqqa solish, zo‘ravonlik va inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shafqatsiz yoki g‘ayriinsoniy muomala hamda jazolash taqiqlangan [4].

Mazkur normaning muhim xususiyati shundaki, u inson qadr-qimmatining himoyasini davlatning umumiy siyosiy maqsadi darajasida emas, balki aniq konstitutsiyaviy talab sifatida belgilaydi. Xususan, shaxsga nisbatan muomala qilishda uning insoniy sha’ni va daxlsizligini hurmat qilish davlat organlari zimmasidagi konstitutsiyaviy majburiyatlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomala faqat jismoniy zo‘ravonlik bilan bog‘liq holatlarda yuzaga kelmaydi. Shaxsni asossiz ravishda tahqirlash, uning shaxsiy daxlsizligini mensimaslik yoki davlat vakolatlarini insonni kamsitadigan tarzda amalga oshirish ham tegishli huquqiy baholashni talab qilishi mumkin. Biroq bunday vaziyatlarda qadr-qimmatning buzilganligini aniqlash uchun har bir ishning faktik holatlari, tegishli qonunchilik normalari va shaxs huquqlariga yetkazilgan ta’sir baholanishi lozim.

Shu jihatdan inson qadr-qimmatiga oid konstitutsiyaviy kafolatlarning samaradorligi ularning qonunchilikda mavjudligi bilangina belgilanmaydi. Bunda davlat organlari tomonidan huquqiy normalarga rioya qilinishi, shaxsning shikoyat qilish imkoniyatlari va buzilgan huquqlarni tiklash mexanizmlarining mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega.

Inson qadr-qimmati va konstitutsiyaviy huquqlarning bevosita amal qilishi. Tadqiqot davomida aniqlangan muhim natijalardan biri inson qadr-qimmatining ustuvorligi bilan konstitutsiyaviy huquqlarning bevosita amal qilishi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikdir. Konstitutsiyaning 15-moddasida Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligi va bevosita amal qilishi belgilangan. Uning 20-moddasida esa insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi, ular qonunlar hamda davlat organlari faoliyatining mazmunini belgilashi mustahkamlangan [4].

Mazkur qoidalar inson qadr-qimmatiga oid konstitutsiyaviy kafolatlarni huquqni qo‘llash jarayonida inobatga olishning normativ asosini tashkil etadi. Xususan, tegishli huquqiy munosabatni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini sharhlashda insonning konstitutsiyaviy huquqlari va qadr-qimmatini himoya qilish zarurati e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi 16-sonli qarorida odil sudlovni amalga oshirishda Konstitutsiya normalarini bevosita qo‘llash masalalari tushuntirilgan [5]. Mazkur qaror Konstitutsiyaning bevosita amal qilish prinsipini sud faoliyati bilan bog‘lovchi muhim huquqiy manba hisoblanadi. Unda sudlar tegishli qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligini inobatga olishi, Konstitutsiya normalarini bevosita amal qiluvchi oliy yuridik kuchga ega normalar sifatida qo‘llashi lozimligi tushuntirilgan.

Bu holat inson qadr-qimmatini himoya qilishning amaliy imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki konstitutsiyaviy kafolatni qo‘llash masalasi faqat yangi qonun qabul qilinishi bilan bog‘lab qo‘yilmaydi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy norma va maxsus qonun o‘rtasidagi munosabatni aniqlash, huquqiy nizoning xususiyatlarini baholash hamda tegishli protsessual qoidalarga rioya qilish zarurati saqlanib qoladi.

Inson qadr-qimmati va mutanosiblik prinsipining o‘zaro bog‘liqligi. Konstitutsiyaning 20-moddasida davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerakligi belgilangan. Bundan tashqari, inson bilan davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarda qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi mustahkamlangan [4].

Mutanosiblik prinsipi inson qadr-qimmatini himoya qilishda alohida ahamiyatga ega. Chunki davlatning qonuniy maqsadni ko‘zlashi shaxsga nisbatan har qanday cheklov yoki huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash mumkinligini anglatmaydi. Bunday chora qonuniy maqsadga mos, zarur va shaxs huquqlariga nisbatan haddan tashqari og‘ir bo‘lmasligi kerak.

Masalan, davlat organi tomonidan shaxsga nisbatan huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilganda uning qonuniy asosi mavjudligi bilan birga, ushbu choraning ko‘zlangan maqsadga muvofiqligi va shaxs manfaatlariga ta’siri ham baholanishi zarur. Bunda inson qadr-qimmatini hurmat qilish davlat vakolatlaridan foydalanishning muhim konstitutsiyaviy chegarasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu asosda inson qadr-qimmatini himoya qilishni baholash uchun huquqiy ta’sir chorasining qonuniyligi, zarurligi, mutanosibligi va shaxsning himoyalanish imkoniyatlari birgalikda o‘rganilishi lozim, degan xulosaga kelish mumkin.

Inson qadr-qimmatini ta’minlashda davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari. Konstitutsiyaning 54-moddasida insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi sifatida belgilangan [4]. Ushbu qoida inson qadr-qimmatining ustuvorligini davlat faoliyatining umumiy yo‘nalishi bilan bog‘laydi.

Davlatning bu boradagi majburiyatlarini ikki asosiy yo‘nalishda tushuntirish mumkin. Birinchi yo‘nalish shaxsning huquq va erkinliklariga asossiz aralashmaslik, uning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlardan tiyilishni anglatadi. Ikkinchi yo‘nalish esa inson huquqlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi qonunchilik, tashkiliy va protsessual mexanizmlarni ta’minlash bilan bog‘liq.

Mazkur ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldiradi. Chunki shaxsning qadr-qimmatini hurmat qilish faqat davlat tomonidan noqonuniy harakatlar sodir etilmasligigagina bog‘liq emas. Huquq buzilishi sodir bo‘lganda uni aniqlash, bartaraf etish va buzilgan huquqni tiklashning samarali vositalari ham mavjud bo‘lishi kerak.

Inson qadr-qimmatini sud orqali himoya qilish mexanizmlari. Konstitutsiyaning 55-moddasida har kimning o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish huquqi, sudga shikoyat qilish imkoniyati va buzilgan huquqlarini tiklash kafolatlari belgilangan [4].

Ushbu norma inson qadr-qimmatining daxlsizligi haqidagi konstitutsiyaviy qoidani amaliy himoya mexanizmlari bilan bog‘laydi. Agar shaxs davlat organi yoki mansabdor shaxsning qonunga xilof qarori, harakati yoxud harakatsizligi natijasida o‘z huquqlari buzilgan deb hisoblasa, tegishli protsessual tartibda sudga murojaat qilish imkoniyatiga ega.

Bundan tashqari, 55-moddada davlat organlarining yoxud ularning mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqi ham mustahkamlangan. Bu kafolat shaxs huquqlarini himoya qilish faqat noqonuniy harakatni to‘xtatish bilan cheklanmasligini, balki muayyan shartlarda yetkazilgan zararni qoplash masalasini ham qamrab olishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, sud himoyasining samaradorligini baholashda faqat sudga murojaat qilish huquqining mavjudligini yetarli deb hisoblab bo‘lmaydi. Ishning mustaqil va xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi, tegishli protsessual kafolatlarning ta’minlanishi hamda sud qarorlarining ijrosi ham muhimdir. Mazkur masalalar inson qadr-qimmatining konstitutsiyaviy himoyasi va odil sudlov sifati o‘rtasidagi aloqani namoyon etadi.

Tadqiqot natijalarining umumlashtirilishi va huquqiy takliflar**.** O‘tkazilgan normativ-huquqiy tahlil inson qadr-qimmatining ustuvorligini konstitutsiyaviy huquqda uch jihatdan baholash mumkinligini ko‘rsatdi. Birinchidan, u davlat va jamiyatning asosiy qadriyaviy yo‘nalishini belgilaydi. Ikkinchidan, u shaxsning sha’ni

va daxlsizligini himoya qilishga xizmat qiluvchi konstitutsiyaviy kafolatdir. Uchinchidan, u davlat qarorlari va huquqiy ta’sir choralarini inson huquqlari nuqtayi nazaridan baholashga imkon beruvchi mezondir.

Mazkur natijalar asosida inson qadr-qimmatini himoya qilishga oid huquqni qo‘llash amaliyotida quyidagi yondashuvlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Birinchidan, davlat organlari tomonidan shaxs huquqlariga ta’sir qiluvchi qarorlar qabul qilinganda ularning huquqiy asoslari bilan birga mutanosibligi va shaxsning konstitutsiyaviy manfaatlariga ta’siri ham asoslantirilishi kerak. Bu tavsiya Konstitutsiyaning 20-moddasidagi mavjud talablarni izchil amalga oshirishga qaratilgan.

Ikkinchidan, sud hujjatlarida inson qadr-qimmatiga oid konstitutsiyaviy normalarga murojaat qilinganda, mazkur normalarning aniq huquqiy nizoga qanday aloqadorligi va qarorning asoslantirilishidagi o‘rni ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv konstitutsiyaviy qadriyatlarni umumiy bayon qilish bilan cheklanmasdan, ularni huquqiy dalillash vositasi sifatida qo‘llashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, inson qadr-qimmatining buzilishi haqidagi murojaatlarni tahlil qilishda buzilgan huquqning xususiyati, davlat organi harakatining qonuniyligi, shaxsga yetkazilgan ta’sir va mavjud himoya vositalarining samaradorligi kabi mezonlardan kompleks foydalanish tavsiya etiladi.

To‘rtinchidan, huquqni qo‘llovchi organlar faoliyatida inson qadr-qimmati daxlsizligi va konstitutsiyaviy normalarning bevosita amal qilishiga oid amaliy-uslubiy tushuntirishlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bunda yangi huquqiy majburiyatlarni sun’iy ravishda yaratish emas, balki amaldagi konstitutsiyaviy kafolatlarni izchil qo‘llash asosiy vazifa bo‘lishi kerak.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadr-qimmatining ustuvorligi alohida norma doirasida emas, balki o‘zaro bog‘langan konstitutsiyaviy kafolatlar tizimi orqali ifodalanganini ko‘rsatadi. Mazkur tizimning huquqiy ahamiyati insonning oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi, huquqlarining bevosita amal qilishi, sha’ni va qadr-qimmatining daxlsizligi, davlatning huquqlarni ta’minlash majburiyati hamda sud himoyasi imkoniyatlarining o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadr-qimmatining ustuvorligi demokratik va huquqiy davlatning asosiy konstitutsiyaviy prinsiplaridan biri sifatida mustahkamlangan. Mazkur prinsip inson huquq va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi, ularning bevosita amal qilishi, sha’n va qadr-qimmat daxlsizligi hamda samarali sud himoyasi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘tkazilgan normativ-huquqiy va qiyosiy tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, inson qadr-qimmatining konstitutsiyaviy-huquqiy mazmuni uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: konstitutsiyaviy qadriyat, mustaqil huquqiy himoya obyekti va davlat organlari faoliyatini baholash mezoni. Konstitutsiyaning 13-moddasi ushbu prinsipning qadriyaviy asosini belgilasa, 26-modda inson sha’ni va qadr-qimmatining daxlsizligini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Mazkur normalarning tizimli talqini inson qadr-qimmatini nafaqat umumiy huquqiy g‘oya, balki aniq huquqiy munosabatlarda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan konstitutsiyaviy talab sifatida baholash imkonini beradi.

Ikkinchidan, inson qadr-qimmatini ta’minlashning samaradorligi konstitutsiyaviy normalarning bevosita amal qilish mexanizmi bilan bog‘liq. Konstitutsiyaning 15 va 20-moddalarida belgilangan qoidalar inson huquq va erkinliklarini huquqni qo‘llash jarayonida ustuvor mezon sifatida hisobga olishni talab etadi. Shu sababli davlat organlarining shaxs huquqlariga ta’sir qiluvchi qarorlarida qonuniylik bilan bir qatorda mutanosiblik, asoslantirilganlik va inson manfaatlariga hurmat masalalari ham baholanishi zarur.

Uchinchidan, inson qadr-qimmatini himoya qilish davlatning salbiy va ijobiy majburiyatlarini o‘z ichiga oladi. Salbiy majburiyat shaxsning sha’ni va qadr-qimmatiga noqonuniy tajovuz qilishdan tiyilishni anglatsa, ijobiy majburiyat huquqlarni himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va buzilgan huquqlarni tiklash uchun zarur huquqiy mexanizmlarni ta’minlashni nazarda tutadi. Konstitutsiyaning 54 va 55-moddalari ushbu majburiyatlarni amalga oshirishning muhim normativ asosini tashkil etadi.

To‘rtinchidan, inson qadr-qimmatining ustuvorligi prinsipini sud amaliyotida qo‘llashda konstitut-

siyaviy normalarga umumiy murojaat qilishning o‘zi yetarli emas. Sud qarorlarida qadr-qimmatga oid normaning muayyan nizoga aloqadorligi, shaxsning qaysi huquqi buzilgani va qo‘llanilgan huquqiy ta’sir chorasining mutanosibligi asoslantirilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv konstitutsiyaviy prinsiplarning amaliy huquqiy ahamiyatini kuchaytiradi.

Beshinchidan, inson qadr-qimmatini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida davlat organlari va sudlar faoliyatida konstitutsiyaviy normalarni qo‘llashning yagona mezonlarini rivojlantirish taklif etiladi. Xususan, shaxs huquqlariga ta’sir qiluvchi qarorlarni baholashda ularning qonuniy asosi, zarurligi, mutanosibligi, shaxs manfaatlariga ta’siri va samarali himoya vositalarining mavjudligi kompleks ravishda o‘rganilishi lozim. Shuningdek, inson sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligiga oid amaliy-uslubiy tushuntirishlarni takomillashtirish huquqni qo‘llashda izchillikni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.

Umuman, tadqiqot natijalari inson qadr-qimmatining ustuvorligi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida normasi bilan cheklanmasdan, o‘zaro bog‘liq huquqiy kafolatlar tizimi orqali ta’minlanishini ko‘rsatadi. Ushbu tizimning samaradorligi konstitutsiyaviy qoidalarning davlat organlari faoliyatida izchil qo‘llanishi, sud himoyasining ta’minlanishi va inson huquqlarini tiklash mexanizmlarining amaliy natijadorligiga bog‘liq. Shuning uchun inson qadr-qimmatini himoya qilishning keyingi rivojlanishi yangi normalarni qabul qilish bilan bir qatorda, mavjud konstitutsiyaviy kafolatlarni samarali amalga oshirishga ham yo‘naltirilishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Horák, F. (2022). Human dignity in legal argumentation: A functional perspective. *European Constitutional Law Review, 18*(2), 237–263. https://doi.org/10.1017/S1574019622000141

1. Stone Sweet, A., & Wan, T. T. W. (2023). Global constitutionalism and the People’s Republic of China: Dignity as the “fundamental basis” of the legal system? *International Journal of Constitutional Law, 21*(2), 433–460. https://doi.org/10.1093/icon/moad034
2. Pardo-Vergara, M. (2025). Dignity as humanness: A pathway to understand the place of dignity as a constitutional end. *International Journal of Law in Context*, *21*(3), 514–532. https://doi.org/10.1017/S1744552325100025
3. O‘zbekiston Respublikasi. (2023). *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi* (2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan yangi tahrir). https://lex.uz/docs/-6445145
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi. (2023, 23-iyun). *Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida* (16-son qaror). https://lex.uz/uz/acts/-6523654
5. United Nations General Assembly. (1948). *Universal Declaration of Human Rights*. https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights/